



## BADIIY ADABIYOTDA MAVZU IFODASI

*Halimova Gavharshodbegim*

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Magistratura bo'limi: Ingliz adabiyoti 210 –  
guruh talabasi*

*Annotatsiya: Tezisdagi badiiy adabiyotda mavzu kategoriyasining rang-barangligi, turlari va xususiyatlari tadqiq etilgan. Mavzu mezonlari, ko'lami, badiiy asarning yaratilishidagi o'rni misollar bilan ilmiy-tahliliy va nazariy umumlashtirilgan.*

*Key words: mavzu, asar g'oyasi, ontologik, antropologik, abadiy mavzu, universal mavzu*

Har qanday adabiy asarning mazmunini baholash va tahlil qilish uchun birinchi navbatda, u nima haqida va qanday maqsadda yozilgan? degan savollarni kitobxon o'z oldiga qo'yishi zarur. Bunday savollar ilmiy atamalar tiliga tarjima qilinganda, asarning mavzusi va g'oyasi nima? kabi savollarga javob topish kerak bo'ladi. Chunki bu ikki kategoriya asarning qurilishidagi asosiy poydevor hisoblanadi. Mavzu va g'oyasiz asarni bir tasavvur qilib ko'ring, ongingizda faqat tushunarsiz yozuvlar paydo bo'ladi holos. Shuning uchun ham, mavzu tushunchasi adabiyotda tahlil etilishi shart bo'lgan kategoriyalardan hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar, qo'llanmalar va lug'atlarda "mavzu" termini har xil izohlanadi. Rus olimi G.L. Abramovichning fikricha "ba'zilar mavzu bu-tasvir uchun foydalanilgan hayotiy material deb tushunsa, boshqa bировlar asarda ko'tarilgan ommaviy muammoni tushunadi"<sup>1</sup>- deydi. Demak, bunday holatda mavzu ikki tushunchaning birlashmasi deyish mumkin. Mavzu - tasvirning predmeti, boshqacha aytganda, asarda namoyish qilish uchun olingan materialdir. Darhaqiqat, mavzu har qanday asar yaratishning boshlang'ich nuqtasidir. Qoidaga ko'ra, asarda bir nechta mavzular mavjud, ammo bittasi ustunlik qiladi. Mavzular tarixiy jihatdan shartlangan, chunki vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, lekin har qanday vaqtda dolzarb bo'lib qoladigan "abadiy" mavzular ham mavjud - bolalik, yaxshilik va yomonlik, xiyonat, sevgi va boshqalar. Badiiy mavzu hayotning o'zi emas, balki hayotdan olingan taassurotlar to'plami, hayot hodisalarining yozuvchi ongida aks etishidir. Yozuvchi hayot hodisalarining ma'lum doirasiga qiziqishi, ularni tushunishi, ularga munosabatini aniqlashi va nihoyat, bularning barchasini badiiy obrazlarga aylantirishi kerak. Rus adibi M.Gorkiy shunday ta'kidlagan edi: "Mavzu – muallif tajribasida vujudga kelgan, lekin uning taassurotlari bag'rida hali ham to'liq shakllanmagan va obrazlarda gavdalanishni talab qiladigan, yozuvchida obrazlar ustida ishlashga chorlovchi ishtiyoq uyg'otadigan g'oyadir"<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> G.L.Abramovich "Введение в литературоведение" 1970

<sup>2</sup> В.Е.Хализев "Теория литературы"

Ko'pincha mavzu yozuvchining ongida o'ziga xos muammo, ya'ni tushunish va hal qilishni talab qiladigan hayotiy masala sifatida paydo bo'ladi. "Mavzu" so'zi - qadimgi grek tilidan, dastlab "asos" degan ma'noni anglatadi. Yozuvchilar ba'zan sarlavhalarda o'z asarlari mazmunining asosiy urg'usini beradilar. Demak, badiiy asar mavzusi - unda aks etgan hayotiy hodisa yoki jamiyatni qiziqtirgan, jamiyatni qiziqtiruvchi savollar tug'diruvchi bir qator hodisalardir.

V.B.Tomashevskiyning fikricha, mavzu asarning asosi sifatida qolgan elementlarni o'zida birlashtiradi. Adabiyot san'at turi sifatida hayot hodisalarini, insonning fikr va tuyg'ularini, voqelikning real va fantastik ob'ektlarini tasvirlash uchun katta imkoniyatlarga ega. Binobarin, badiiy asarlarning mavzusi boy va rang-barangdir. Ushbu tushuncha 1920-yilgacha tor doiradagi



ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, so'ngra ijtimoiy ahamiyatga ega konseptsiyalar qatoriga kirdi. Badiiy mavzu murakkab va ko'p qirralidir.

Nazariy jihatdan ularning yaralish asosini ba'zi olimlar 3 turga:

- 1) ontologik va antropologik;
- 2) nisbatan kattaroq qamrovga ega, tarixiy-madaniy;
- 3) shaxsiy individual qadr-qimmatga ega voqea hodisalarga asoslangan mavzularga bo'ladilar. San'atda mavzu tushunchasini bunday talqin qilish dastlab M.M. Girshman tomonidan boshlangan, uning so'zlariga ko'ra, "asarlarda insoniyat, xalq va aniq inson shaxsi badiiy yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi". Bundan tashqari badiiy mavzular adabiy tanqidchilikda yana bir necha guruhlarga bo'linadi. Birinchisi, anglash predmeti sifatidagi, "abadiy mavzular". Bu barcha davrlarda va barcha adabiyotlarda insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan hodisalar majmuasi - hayot va o'lim, yorug'lik va zulmat, sevgi, erkinlik, shu kabi mavzulardir. Ular adabiyotda asar mavzulari majmui yoki tematikasining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda.

Abadiy mavzular o'z o'rnida yana 2 turga ajraldi:

- 1) ontologik (maishiy, borliq yoki koinot tasviri;
- 2) antropologik (insoniyatning mavjudligi asoslari)

Bu ikki turning uyg'unlashgan holatini J. Joysning "Uliss" asarida ko'rish mumkin. Ko'pincha umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan mavzular qatlamini falsafiy mavzular deb ataladi. Konkret tarixiy mavzular - bu biror mamlakatdagi muayyan ijtimoiy-tarixiy vaziyat tufayli yuzaga kelgan holatlar va voqea-hodisalar, tarixiy davrlar asosida vujudga keladi va muayyan vaqt o'tib takrorlanmaydi. Masalan, XIX-asr rus adabiyotidagi "ortiqcha odam" mavzusi, Ulug' Vatan urushi mavzusi buning misolidir.

Tasvirning predmeti ilmiy fantastika janrlaridagi kabi kelajak ham bo'lishi mumkin. Madaniy va tarixiy mavzular, masalan, fantastika adabiyotida bo'lgani kabi, asarning badiiy dunyosiga ham asoslanishi mumkin.

Boshqa tomondan, zamonaviylik ham adabiyotda badiiy tasvir mavzusi bo'lishi mumkin. Yozuvchining zamonaviy jamiyatini tashvishga solayotgan muammolar ijodkorlarning fikr-mulohazalari va baholari mavzusiga aylanadi va mavzuda - tasvir materialini tanlashda mujassamlanadi. Ijtimoiy mavzuga berilgan javoblar odatda ijtimoiy deb ataladigan mavzularni keltirib chiqaradi (masalan, XIX-asrning 60-yillari adabiyotida eng muhim mavzu dehqonlarning og'ir ahvoli va krepostnoylik islohoti masalasi edi). Ammo adabiyotda yaratilganidan to hozirgi kungacha eng muhim va keng tarqalgani bu inson va uning dunyodagi mavjudligi mavzusidir. Shaxs bilan tasvirning sub'ekti sifatida bog'langan tematik majmua odatda ekzistensial deb ataladi. Uning ichida bir nechta shartli tematik guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin - masalan, muallifning o'zini o'zi bilishiga asoslangan bir qator mavzular, izlanish markazda joylashgan konfessional mavzular, muallifning biografik shaxsiyati, o'zining mavjudligi haqidagi o'y-hayollari. Bunday mavzular, eng avvalo, avtobiografik adabiyotda muhim o'rin tutadi (L.Tolstoyning "Bolalik", "O'smirlik", "Yoshlik" trilogiyasi, asardagi mavzulardan biri muallif shaxsiga yaqin bo'lgan yigit shaxsining shakllanishidir). Yolg'izlik mavzusi she'riyatda (M.Yu.Lermontov she'riyati), ijod mavzusi (M.A.Bulgakovning "Usta va Margarita") kabi asarlarda uchraydi.

Badiiy asarlar kamdan-kam monotematik, ya'ni faqat bitta mavzuni ochishga bag'ishlangan bo'ladi. Epik va dramatik asarlar ko'proq politematiktir, ya'ni ular yozuvchini bezovta qilayotgan yoki hayajonga soladigan turli mavzularni o'z ichiga oladi. Bu esa kamdan-kam hollarda hajm tomondan cheklangan va diqqat bir yoki bir nechta kechinmalarga qaratilgan lirik asarlarda uchraydi.



Xulosa qilib aytganda badiiy mavzu badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy va shunga o'xshash muammolarni badiiy idrok etish uchun talab olingan va tasvirlangan hayot materiali. Adabiyotshunoslikda bu termini ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Asarda tasvirlanayotgan hayot materiali;
2. Asarda badiiy idrok etish uchun qo'yilgan muammolar to'plami.

Tabiiyki, ikkita tushunchaning bitta termin bilan yuritilishi muayyan chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ularning mavzu va muammo tarzida ikki xil nomlangani ma'qul. Agar badiiy ijod tabiatidan kelib chiqib, badiiy mazmun komponentlari ijod jarayoni va uning badiiy asarda namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan farqlansa, shunisi to'g'riroq ekanligi ko'rinadi. Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati o'laroq voqe bo'ladi. Ya'ni borliqda yashayotgan individ sifatida ijodkorni muayyan muammolar o'ylantiradi, tashvishga solidi. Ijodkor uchun o'sha muammoni idrok etish ichki ehtiyojga aylanagani sababli ham asarga qo'l uradi. Shu ma'noda badiiy asar – "ehtiyoj farzandi" (A.Oripov) sanaladi. Ijodkor o'zining qiynagan muammolarini badiiy idrok etish uchun keng va qulay imkon beruvchi hayot materialini tanlaydi va tasvirleydiki bu badiiy asar mavzusidir.<sup>3</sup>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Николаев, А.И. Основы литературы, Listos, Ivanovo, 2011
2. Timofeev, L.I. Fundamentals of literary theory. Moscow, 1959
3. Quronov, D. Adabiyotshunoslik lug'ati, Akademnashr, Toshkent, 2010
4. <http://www.studyboardthat.com>